

Muddatli bank omonati bo'yicha

- sonli shartnoma (chet el valyutasida)

_____ sh.

«___» _____ 2026 y.

Keyingi matnda «Bank» deb yuritiladigan «InfinBank» AJ nomidan _____ asosida harakat qiluvchi _____ bir tomondan, va

keyingi matnda «Omonatchi» deb yuritiladigan _____ nomidan _____ asosida harakat qiluvchi _____, ikkinchi tomondan, keyingi o'rinlarda birgalikda «Tomonlar» deb ataluvchi subyektlar quyidagilar to'g'risida ushbu shartnomani tuzdilar.

1. ShARTNOMA PREDMETI

1.1. Omonatchi Bankka 202__ - yil "___" _____ sanasigacha, ya'ni ___ oy muddatga _____ (_____) **AQSh dollari** miqdoridagi pul mablag'larini (keyingi o'rinlarda Shartnoma bo'yicha – "Omonat") taqdim etadi. Bank esa ushbu pul mablag'larini o'z vaqtida qaytarish hamda ular uchun mazkur Shartnomada nazarda tutilgan tartibda foizlar to'lash majburiyatini oladi.

2. OMONATNI QO'YISH SHARTLARI

2.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha Omonatchidan kelib tushadigan pul mablag'larini hisobga olish uchun Bank Omonatchiga muddatli depozit hisobvarag'ini (keyingi o'rinlarda "hisobvaraqq") ochadi. Omonat summasi mazkur hisobvaraqqga kiritiladi. Hisobvaraqq bo'yicha Bank va Omonatchi o'rtasidagi munosabatlar mazkur shartnomadagi shartlar va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

2.2. Omonatga badallar Omonatchi tomonidan xorijiy valyutada naqdsiz shaklda Bankda ochilgan hisobvaraqqga o'tkaziladi.

2.3. Bank hisobvaraqqdagi Omonat qoldig'ining amaldagi miqdoriga yillik ___ % (_____) foiz) stavka bo'yicha foizlar hisoblaydi va to'laydi. Hisob-kitoblar uchun yilning bazaviy davri 360 kun deb qabul qilinadi.

2.4. Omonat miqdoriga foizlarni hisoblash amaldagi qonunchilikka muvofiq bajariladi. Agar foizlar to'lanadigan sana ishlanmaydigan bank kuniga to'g'ri kelgan taqdirda, u keyingi bank kuniga ko'chiriladi. Bunda to'lanadigan foizlar summasi amaldagi Omonat stavkasi bo'yicha ishlanmagan bank kunlari uchun hisoblangan foizlar summasiga oshiriladi. Omonatga foizlar Bank tomonidan har oyda hisobot oyidan keyingi ___ sanagacha va omonat qaytarilgan sanada to'lanadi hamda Omonatchining talab qilib olinguncha saqlanadigan depozit hisobvarag'iga o'tkaziladi.

2.5. Ushbu Shartnomaning 2.3-bandida belgilangan foiz stavkasi, hisobvaraqq bo'yicha pul mablag'lari harakatidan qat'i nazar, Shartnoma amal qilish muddati davomida o'zgarmas bo'lib qoladi.

2.6. Ushbu Shartnomaning 1.1-bandida ko'rsatilgan muddat davomida Omonatchi tomonidan Omonat summasi amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq Bankni oldindan xabardor qilish sharti bilan to'liq yoki qisman muddatidan oldin talab qilib olinishi mumkin. Omonat muddatidan oldin talab qilib olinganda Bank omonatning muddatidan oldin talab qilib olingan qismi summasiga Omonatchiga Omonatning muddatidan oldin talab qilib olingan qismi amal qiladigan butun davr uchun quyidagi foiz stavkalari bo'yicha foiz to'laydi:

- omonatning amaldagi muddati ___ oygacha (shu jumladan) bo'lganda - ___ foiz;
- omonatning amaldagi muddati ___ oydan ortiq bo'lganda - ___%.

2.7. Omonat muddati Omonatchining muddatli depozit hisobvarag'iga pul mablag'lari kelib tushgan kunning ertasidan boshlab hisoblanadi.

2.8. Omonatga qo'shimcha badallar qabul qilinmaydi.

3. TOMONLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

3.1. Omonatchining huquqlari:

3.1.1. Omonat summasini ushbu shartnomaning 1.1.-bandida kelishilgan uning muddati tugaganda talab qilib olish;

3.1.2. Omonat bo'yicha ushbu shartnomaning 2.3-bo'limida ko'zda tutilgan miqdorda hisoblangan foizlarni olish.

3.1.3. Shartnomani muddatidan oldin bekor qilish va mazkur shartnomaning 2.6-bandida keltirilgan shartlarga muvofiq omonat summasini qaytarishni talab qilish.

3.2. Bank huquqlari:

3.2.1. O'z funksiyalaridan kelib chiquvchi maqsadlarning bajarilishini ta'minlash uchun Omonatchining pul mablag'laridan foydalanish;

3.2.2. Bir tomonlama tartibda, Omonatchining qo'shimcha roziligini olmasdan, qaytarish sanasidan kamida 1 (bir) ish kuni oldin Omonatchini oldindan yozma ravishda xabardor qilgan holda tegishli summani Omonatchining hisobvarag'iga o'tkazish orqali Omonatni Omonatchiga to'liq yoki qisman muddatidan oldin qaytarish. Bankning tashabbusi bilan Omonat muddatidan oldin qaytarilganda, muddatidan oldin qaytariladigan Omonat summasiga foizlar ushbu Shartnomaning 2.3-bandida belgilangan foiz stavkasidan kelib chiqqan holda, pul mablag'lari Omonatda bo'lgan butun haqiqiy davr uchun hisoblanadi va to'lanadi. Bank tashabbusi bilan Omonatni muddatidan oldin qaytarish Bankning Omonatchiga jarimalar, neustoykalar, zararlar yoki boshqa kompensasiyalar to'lash majburiyatini keltirib chiqarmaydi, omonatga hisoblangan foizlar bundan mustasno.

3.2.3. Omonatchining qo'shimcha roziligisiz Omonatga qo'yilgan pul mablag'larini Omonatchining har qanday tuzilgan shartnomalar bo'yicha Bank oldidagi har qanday majburiyatlarini bajarish hisobiga hisobga olish.

3.3. Omonatchining majburiyatlari:

3.3.1. Mazkur shartnomada ko'zda tutilgan miqdorda va shartlarda Omonatni joylashtirish;

3.3.2. Ushbu shartnoma shartlariga qat'iy amal qilish.

3.4. Bankning majburiyatlari:

3.4.1. Bank sirini saqlash. Omonatchining hisobvaraqlariga oid axborotlar faqatgina O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlardagina uchinchi shaxslarga taqdim etilishi mumkin.

3.4.2. Omonatchining Bankdagi hisobvarag'iga foizlarni o'z vaqtida o'tkazish;

3.4.3. Omonatchidan olingan pul mablag'lari yoki Omonatning talab qilingan qismi va unga tegishli foizlarni ularning Bankda turgan aniq butun davri yoki uning muayyan qismini mazkur shartnomaning 2.3 va 2.6-bandlarida kelishilgan tartibda qaytarilishini ta'minlash.

4. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

4.1. Ushbu shartnomaning 3.4.2., 3.4.3-bandlarida ko'zda tutilgan majburiyatlarning buzilganligi uchun Bank Omonatchiga har bir kechiktirilgan qarzdorlik kun uchun to'lov summasidan 0,001%, lekin kechiktirilgan qarzdorlikning 2% dan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi. Penya to'lanishidan qat'i nazar, Bank Omonatchi bilan to'liq hisob-kitob qilmaguncha, ushbu shartnomada ko'zda tutilgan majburiyatlarning bajarilishidan ozod etilmaydi.

4.2. Omonatchi Bankda pul mablag'larining qonuniy joylashtirilishi uchun to'liq javobgar hisoblanadi.

4.3. Agar ushbu shartnomada keltirilgan shartnolarning munosib ijro etilishiga bartaraf etib bo'lmaz kuch, ya'ni joriy vaziyatda favqulodda va qaytarib bo'lmaz hodisalar to'sqinlik qilgan bo'lsa, Tomonlar ushbu shartnomada belgilangan majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarmaslik uchun ko'zda tutilgan javobgarlikdan ozod qilinadilar.

4.4. Bankning javobgarligi haqiqatda joylashtirilgan Omonat va hisoblangan foizlar miqdori bilan cheklanadi. Bank Omonatchining bilvosita zararlari va boy berilgan foydasi uchun javobgar bo'lmaydi.

5. QO'SHIMCHA SHARTLAR

5.1. Mazkur shartnoma Bankda Omonatchi tomonidan omonat summasi qo'yilgan sanadan boshlab kuchga kiradi va ushbu shartnomaning 1.1-bandida belgilangan muddat davomida amal qiladi. Bunda,

ushbu shartnomaning 1.1-bandida belgilangan muddatning tugagan va Omonatchi tomonidan Omonat va unga hisoblangan foizlar talab qilinmagan taqdirda, muddati tugagan Omonat talab qilib olingunga qadar bo'lgan omonat hisobiga o'tkaziladi hamda talab qilib olingunga qadar bo'lgan omonat shartlari asosida ularga foizlar hisoblanadi.

5.2. Ushbu shartnomani imzolash paytida Omonatchi omonat muddati tugashi, shu bilan birga, Bank tomonidan unga Omonatning butun summasi qaytarilishi bilan mazkur shartnomani bekor qilish va omonat hisobini yopish zaruratining mavjudligini e'tirof etadi.

5.3. Ushbu shartnomaga doir barcha o'zgartirish va ko'shimchalar agar ular yozma shaklda tuo'lgan va Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan imzolangan taqdirda haqiqiy hisoblanadi.

5.4. Ushbu shartnoma majburiyatlarini bajarish asnosida yuzaga kelgan bahs va ziddiyatlar, Tomonlar o'rtasida muzokaralar yo'li bilan imkon qadar hal etiladi. Agar bahs va ziddiyatlarni muzokara orqali hal etib bo'lmasa, Tomonlar ularni _____ sudiga ko'rib chiqish uchun topshiradilar.

5.5. O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq (O'RQ-1031-son, 18.02.2025 y.) «Banklardagi omonatlarni himoyalash kafolatlari to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq yuridik shaxslarning/yakka tartibdagi tadbirkorlarning omonatlari kafolatlash ob'ektlari hisoblanadi. Kafolatli holat yuzaga kelganda Omonatchi Qonunda belgilangan miqdorda kompensasiya olish huquqiga ega:

- kafolat ob'ekti qoldig'ining to'liq hajmi, agar uning miqdori ikki yuz million so'm yoki undan kam bo'lsa;

- ikki yuz million so'm, agar kafolatlash ob'ektining qoldig'i ikki yuz million so'mdan ortiqni tashkil etsa.

5.6. Omonatchi tomonidan Omonat bo'yicha olingan foiz daromadlarini soliqqa tortish ishlari O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq bajariladi.

5.7. Ushbu shartnoma 2 ta nusxada, ya'ni har bir tomon uchun teng huquqiy kuchga ega bo'lgan bittadan nusxada tuzilgan. Bunda Tomonlar bir-biriga ushbu shartnomani tuzish va imzolash uchun barcha vakolatlarga ega ekanliklarini bildiradilar va kafolatlaydilar.

6. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI:

BANK

«InFinBank» AJ

Manzil: _____

h/r: _____

Bank kodi: _____

STIR: _____

IFUT kodi: 64190

Telefon: (____) _____

OMONATCHI

Manzil: _____

h/r: _____

Bank kodi: _____

STIR: _____

IFUT kodi: _____

Telefon: _____

(F.I.O.)

(Imzo)

M.O'.

(F.I.O.)

(Imzo)

M.O'.